



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



## “HURLIQO VA HAMRO” DOSTONIDAGI MOTIVLAR HAQIDA

**Ozodova Nafosat Sherxon qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Hamza Allambergenov Kamalovich**

*Ilmiy rahbar: Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15378964>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Hurliqo va Hamro” dostonidagi motivlar va boshqa dostonlardagi motivlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** motiv, “Hurliqo va Hamro”, tush, safar, farzandsizlik, to'y, qirq kun, “Kuntug'mish”, “Rustamxon”, “Alpomish”, versiya.

**Аннотация.** В статье рассматриваются мотивы эпической поэмы «Хурлика и Хамра», а также мотивы других эпических поэм.

**Ключевые слова:** мотив, «Хурлика и Хамро», сон, путешествие, бездетность, свадьба, сорок дней, «Кунтугмиш», «Рустамхан», «Алпомиш», версия.

**Annotation.** This article explores the motifs in the epic “Hurliqo va Hamro” and their presence in other epics.

**Key words:** motif, “Hurliqo and Hamro”, dream, journey, childlessness, wedding, forty days, “Kuntug'mish”, “Rustamkhan”, “Alpomish”, version.

### KIRISH

Badiiy adabiyot, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish dostonlar insonlarni har tomonlama yetuk va komil inson sifatida shakllanishida, axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalanishida katta ahamiyatga egadir. Badiiy ijod namunalari orqali o'tmishning biz bilmagan qirralarini bilib olamiz. Nafaqat o'tmishning balki milliy qadriyatlar, urf-odatlar, insoniylik, vatanga muhabbat kabi fazilatlarni aks ettirgan badiiy ijod namunalari orqali adabiyotimizning o'ziga xos qirralarini anglab yetamiz. Ayniqsa motivlar ko'pchilik asarlarda o'ziga xos ko'rinishlari bilan o'zining badiiylik jihatlarini namoyon etgan.

Badiiy ijod namunalarida keltirilgan motivlar ham o'ziga xos xususiyatiga egadir. Motiv tushunchasi haqida Dilmurod Quronovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kitobida shunday yozilgan edi: “Motiv – (motiv obraz) shakliy va umumiy jihatlaridan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorlarning asarlaridan qaytarilib



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir”<sup>1</sup> deyilgan. Demak motivlar har bir asarda muayyan badiiy funksiya uchun xizmat qiladi. Ana shunday asarlar singari “Oshiqnoma” turkumiga kiritilgan “Hurliqo va Hamro” dostonida ham folklorga xos bo‘lgan bir qancha motivlar uchraydi. Masalan, safar (yo‘l), farzandsizlik, tush hamda qirq raqami bilan bog‘liq motivlar asarda o‘ziga badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan. Bunday motivlar dostonlarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Safar motividan “Hurliqo va Hamro” dostonining o‘zbek hamda qoraqalpoq tilidagi versiyalarida faol foydalanilgan. Mazkur tasvir usulini “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon” dostonlari voqealarida ham ko‘rishimiz mumkin. Yani bu dostonlarda ham aynan bir xil motivlar uchraydi. Ba’zi motivlar esa voqealari sababli farq qiladi. Xususan safar motivi ham ana shunday motivlar sirasiga kiradi. Mazkur motivda asar qahramonlari biror maqsadda uzoq safarga chiqishadi va safar davomida turli qiyinchiliklar yoki sarguzashtlarni boshidan kechirishadi. “Hurliqo va Hamro” dostonidagi qahramonlar ana shunday biror maqsad bilan safarga chiqishadi. Ya’ni asardagi aka-ukalar afsonaviy “Bulbuligo‘yo”ni topish uchun safarga otlanishadi va turli voqealarni boshidan kechirishadi. Bu dostonning qoraqalpoq tilidagi versiyasida ham voqealar ana shunday tasvirlangan.

“Hurliqo va Hamro” dostonida boshqa folklor janrlari, jumladan, ertak hamda dostonlarda faol qo‘llanilgan farzandsizlik motivi ham mavjud. Bu motiv ham safar motivi singari xalq dostonlarining ko‘pchiligida uchraydi. Odatda ayrim xalq dostonlari, ertaklarining boshlanma qismida podshohlarning, beklar yoki ulug‘ martabali qahramonlarning farzandsizligi bilan boshlanadi. “Hurliqo va Hamro” dostoni voqealari ham Xusrav podshohning farzandsiz ekanligini voqealari bilan boshlanadi. Bu holat qoraqalpoq tilidagi versiyada ham kuzatiladi: “Buring‘1 o‘tken zamanda, zamannin’ qa‘diminde, Mısır degen sha‘harinde Xisraw patsha degen patsha bolıptı. Bul patshanin’ otız eki hayalı bolıptı, otız eki hayalınan ya ul ya qiz nishan bolmaptı”. Ba’zi dostonlardagi motivlarida yoki kompozitsiyada o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Lekin ushbu motiv “Hurliqo va Hamro” dostoning qoraqalpoq tilidagi versiyasi bilan mushtarak xususiyatga ega. “Rustamxon” o‘zbek xalq dostonida ham voqealar Sultonxonning farzandsizligi bilan boshlandi va keyinchalik farzandli bo‘lish tasvirlari keltirilgan.

Qirq raqami bilan bog‘liq motiv ko‘pchilik dostonlarda uchraydi. Masalan, “Hurliqo va Hamro” dostonida farzandlari tug‘ilganda qirq kecha va kunduz to‘y

<sup>1</sup> Quranov D. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” — Toshkent: Navoiy universiteti, 2018, 73-74.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



berishi, Hurliqo va Hamroning qirq kecha va kunduz birga baxtli hayoti voqealari aks etgan. Deyarli barcha dostonlarning yakunlovchi qismida an'anaviy takrorlanuvchi "qirq kecha va kunduz to'y berib, baxtli hayot kechirishdi" deya yakunlanadigan motiv biz so'z yuritayotgan dostonlarga ham xos. Jumladan ushbu "Hurliqo va Hamro" dostonida ham bu motivning ko'rinishi o'ziga xos tasvirlar orqali gavalantirilgan. Bundan tashqari bu dostonning qoraqalpoq tilidagi versiyasida ham xuddi shu motiv o'z aksini topgan. Deyarli ikkala dostonda ham bu motiv bir xil voqealar asosida tasvirlangan.

Keyingi motiv tush motividir. Bu motiv ham "Hurliqo va Hamro" dostonidan o'rin olgan. Dostonning asosiy voqealari shu tush motivi bilan bog'liq. Asarda Xisrav podshohning tush ko'rishi, keyin Hurliqo va Hamroning tush ko'rib, tushida to'ylari bo'lishi voqealari mavjud. Boshqa dostonlarda ham tushi orqali suhbat qurishi yoki nikoh qurish voqealari aks etadi. Ko'pincha tush motivi voqealar boshida, rivojida va oxirida bo'lishi mumkin. Tush motivi boshqa dostonlar, jumladan: "Alpomish", "Rustamxon", "Kuntug'mish" dostonlarida ham asosiy voqealar ana shu tush bilan bog'liq holda kelgan. Tush motivi asardan olinsa yoki tushib qolsa unda voqealar rivoji o'zgarib ketishi mumkin. Ana shu tush motivi asrning asosiy voqealarini o'z ichiga olib, agar u o'zgartirilsa asar mohiyati yoki qahramonlar hayoti ham o'zgarib ketishi mumkin. Hurliqo va Hamro dostonining ham boshida, asarning voqealar rivojida ham tush motivi uchraydi. Bu dostonidagi motivlar, dostonning boshqa versiyalarida ham mavjud.

Masalan "Hurliqo va Hamro" dostonning qoraqalpoq tilidagi versiyasida ham aynan shu tush motivi o'zbekcha versiyasidagi kabi qo'llangan. Ya'ni ikkala versiyadagi dostonidagi tush voqealari bir xil tarzda namoyon bo'lgan. Ba'zi dostonlarning versiyalaridagi voqealar bitta motiv o'zgarishi yoki olib tashlanishi bilan asar o'zgarishi mumkin. Lekin bu dostonning qoraqalpoq tilidagi va o'zbek tilidagi versiyalari deyarli bir xil. Faqat tush motivi emas boshqa motivlar ham qoraqalpoq tilidagi versiyasida o'z aksini topgan.

Masalan safar (yo'l) motivi, farzandsizlik motivi, qirq raqami bilan bog'liq motivi keltirilgan asar voqealari ham o'zgaragan. Dostonning ikkala versiyasi ham deyarli bir xil. Keyingi motiv to'y motivi. Bu motiv ham deyarli barcha dostonlardan o'rin olgan. "Hurliqo va Hamro" dostonida ham Hurliqo va Hamroning nikohlanishi voqealari tasviri ham mavjud. Bu dostonidan tashqari xalq dostonlarida ham ularning versiyalarida ham ushbu motiv uchraydi. Hurliqo va Hamro do'stining qoraqalpoq tilidagi versiyasida ham bu motiv yaqqol namoyon bo'lga. Asar qahramonlarining nikoh jarayonlari badiiy bo'yoqlar bilan tasvirlangan.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dostonlardagi sujetlar, motivlarning har birining asarda o'ziga yarasha o'rini va ahamiyati kattadir. Ular asarlarning asosiy mazmunini va g'oyasini o'zida aks ettirib turadi. Ana shu motivlar asosida xalq og'zaki ijodi namunalari o'ziga xos xususiyatlarini, xalqimizning milliy urf odatlari, qadim qadimdan kelayotgan milliyligimiz, an'analimizni bilib olamiz va kelgusi avlodlar ham bilib olishi, o'rganishi uchun asos bo'la oladi. Har bir motivning o'ziga xos tomonlari, vazifalari bor. Shu sababdan ham har bir asar yoki dostonlardagi motiv biror voqealarning takrorlanishi yoki o'zgarishi bilan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish dostonlar kitobxonni ma'naviy dunyosini boyitadi, ham aqlan ham jismonan rivojlanishida, dunyoqarashini shakllantirishda o'ziga xos ahamiyatga egadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ro'zimboyev S.R, Eshchanova G.O. Ro'zimboyev S.S., Ahmedov A. Oshiqnoma (1-kitob). – Urganch: Xorazm, 2006.
2. Quronov D. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
3. Turapovna, I. S. (2021). Semantics of the lexeme "green". *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 440-448.
4. Qoraqalpoq folklori 55- tom J.Jumanov “Hurliqo va Hamro”1978.
5. Zulhumor, X. O. L. M. A. N. O. V. A. (2017). Babür'ün Özbek Dilbilimini Geliştirmedeki Büyük Hizmetleri. *Journal of Modern Turkish Studies*, 14(1), 85.
6. Bilveren, T. (2015). Babürnâmedeki bazı kelimelerin tarihî ve etimolojik tahlili. *Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, 5(9), 114-118.
7. Zulhumor, X. (2023). Bobur–semantikaning sohir bilimdoni. *Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры*, 1(1).
8. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023). Bilingvizm turlari va ikkinchi til leksik bazasi. In *international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188)*.
9. Israilova, S. (2023). The pragmatic occurrence and mental properties of color component units in context. *Interpretation and researches*, 1(5).
10. Saodat, I. Ko 'k' leksemasining etimologik tavsifi. *O 'zbekiston*, 75.
11. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. *Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations*.
12. Israilova, S. (2022). “KO 'K' leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. *Computer linguistics: problems, solutions, prospects*, 1(1).
13. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). *O 'zbek adabiy tili leksikasi tarixi*. Toshkent: Fan, 97-103.